



**Sadullayeva Jamila Ibodilla qizi,**  
«Oila va xotin-qizlar» ilmiy-tadqiqot instituti  
kichik ilmiy xodimi

## MIGRANT AYOLLAR MUAMMOLARINING XORIJ TAJRIBASIDA O'RGANILGANLIGI

**Annotatsiya.** Mazkur ilmiy maqola hozirgi kunda dolzarb bo'lgan migratsiya masalasiga bag'ishlangan. Migrant ayollarning muammolari, ayollarning migratsiyaga undovchi sabablar ochib berilgan hamda migrant ayollarda uchraydigan psixologik holatlar tahlil qilingan.

**Tayanch so'zlar:** migratsiya, ayol migrantlar, adaptatsiya, migrant ayollarning ruhiy salomatligi, gender tenglik.

**Аннотация.** Данная научная статья посвящена актуальному вопросу миграции. Выявлены проблемы и причины женской миграции, анализированы психологические состояния женщин-мигрантов.

**Ключевые слова:** миграция, женщины-мигранты, адаптация, психическое здоровье женщин-мигрантов, гендерное равенство.

**Annotation.** This scientific article is devoted to the current issue of migration. The problems and reasons of women's migration revealed, psychological conditions of migrant women are analyzed.

**Keywords:** migration, migrant women, adaptation, mental health of migrant women, gender equality.

**Kirish.** XX asr boshlarida ayollar turmush ko'rtog'lar bilan birgalikda, ya'ni hamroh sifatida migratsiya qilgan bo'lsalar, hozirgi kunga kelib ularning o'zlari yolg'iz ishlashga, oila boqishga yoki boshqa maqsadlarda migratsiya qilishmoqda. Dunyo statistikasiga ko'ra, xalqaro migrantlar soni tez o'sishda davom etmoqda. Hozirgi kunda dunyo bo'yicha migrantlar soni 281 millionni tashkil qilmoqda<sup>1</sup>.

2021-yil ma'lumotlariga ko'ra, xalqaro ayol-migrantlar soni 135 milliondan ortdi. Migratsiyada bo'lgan ayollar soni faqat Afrika va Osiyo mamlakatlarida erkak migrantlardan kam ko'rsatkichga ega, biroq ayollar migratsiyasi juda tez o'sib bormoqda<sup>2</sup>.

Ayollar migratsiyasi, albatta, yangi tendensiya emas, lekin u endi kengroq e'tirof etila boshlandi. Migratsiya qilayotgan ayollar turli yoshda, ularning ijtimoiy holati ham turlicha, ammo ularning maqsadida umumiylik mavjud – bu shaxsiy hamda oilaviy farovonlik.

**Asosiy qism.** O.P.Koshulko ayollar migratsiyasining shakllarini o'rganib, ushbu mehnat migratsiya turining bir necha shakllarini ajratib ko'rsatdi: qonuniy, noqonuniy va yarim qonuniy<sup>3</sup>. Hozirgi kunda migratsiya qilayotgan ayollarning juda katta qismini noqonuniy yoki yarim qonuniy ketayotganlar tashkil qilmoqda. Afsuski, noqonuniy migrantlarning huquqlari yetarlicha ta'minlanmaydi. Ularga nisbatan tazyiq,

<sup>1</sup> <https://worldmigrationreport.iom.int/world-migration-report-2022-selected-infographics>

<sup>2</sup> International Migration Report, 2020.

<sup>3</sup> [О.П. Кошулько, канд. экон. наук, доцент. Миграция женщин как одно из современных направлений социальных исследований. – С. 121-123.]

zoʻravonlik, kamsitish holatlari uchraydi. Qonuniy migrantlar esa kamchilikni tashkil qiladi. Buning sababi ayollarning qonunni hamda oʻz huquqlarini bilmasliklari natijasi hisoblanadi. Hozirgi kunda Markaziy Osiyoda ham migrantlar soni tez surʼatlar bilan oʻsayotgan boʻlishiga qaramay, ushbu davlatlardagi ayollar migratsiyasi eng kam hududlardan biri. Ayollar migratsiyasi kamligiga sabab turkiy xalqlar anʼanalari va diniy dunyoqarashi hisoblanadi.

Belgiyalik psixolog migratsiya boʻyicha tadqiqotchi **Frohar Poyaning** 2021-yil chop etilgan “Migrant ayollarning ruhiy salomatligi va farovonligi” nomli kitobida Yevropa ittifoqidagi migrant ayollarning somatik hamda ruhiy sogʻligʻi bilan boʻgʻliq vaziyatlarni keng yoritib berdi<sup>4</sup>.

Ayollar oʻzi yashab turgan joyidan boshqa davlatga migratsiya qilganida birinchi toʻsiq joylashish va moslashish hisoblanadi. Bu esa ayollarda depressiyani, yaʼni hissiy buzilish alomatlarini paydo qiladi. Ayollar hissiy boʻshliq, oʻzini ayblash, pessimizm, oʻzining salbiy jihatlarini seza boshlaydilar. Xulq-atvordagi bu buzilishlar tanadagi doimiy charchoq, uyqu buzilishi va holsizlikka olib keladi.

Tadqiqotlarga koʻra, koʻplab migrant ayollarning adaptatsiya jarayonida suitsidga moyilligi oshadi. Bu holat yuqoridagi sabablar bilan bir qatorda, erkaklar tomonidan ularga nisbatan bosimning koʻpligi, zoʻravonlikka uchrashi, jinsiy yoki mehnat ekspluatatsiyasi, ijtimoiy yordamning yetishmasligi, ishsizlik va qashshoqlik kabi omillar sabab ekanligi taʼkidlanadi.

Migratsiyani iqtisodiy yoki ijtimoiy jihatdan oʻrganish bir yoqlama boʻlib, biopsixosotsial model orqali oʻrganish migratsiya va ayollar migratsiyasida koʻp narsani (biologik, psixologik, ijtimoiy sohalar birlashish orqali migratsiyani tadqiq etish) bilish imkonini beradi. Biopsixosotsial model orqali ayollarni oʻrganish shuni koʻrsatdiki, ayollarga migratsiyadan oldingi, migratsiya jarayonida va migratsiyadan keyingi jarayonlarda ruhiy tushkunlik va bosimlarni yengish uchun psixologik xizmatni samarali yoʻlga qoʻyish lozim. Agar migratsiya oldi jarayonlarda ayollarda xavotir va tashvish hissi ortib ketsa, bu boshqa mamlakatga adaptatsiya (moslashish) jarayonini qiyinlashtirishi mumkin.

<sup>4</sup> <https://makemothersmatter.org/migrant-womens-mental-health-wellbeing/>

**Amerikalik iqtisodchi olim K.Oberg** ham oʻz ishida yashash joyini boshqa davlatga koʻchib oʻtish orqali oʻzgartirish insonda “shok” holatini keltirib chiqarishini aytib oʻtgan<sup>5</sup>. Migrantlarda oʻzga madaniyatga tezda moslashish insonda noxush tuygʻularni yuzaga keltiradi. Ruhiy bosim, turli salbiy hissiyotlar paydo boʻladi. Jumladan, yoʻqotish, muvaffaqiyatsizlik hissi, tashvish, yangi vaziyatga dosh bera olmaslik tufayli oʻzini past baholash hamda mahalliy aholiga nisbatan salbiy munosabat migrant insonlarda shakllanishi mumkin. Ayollarda ruhiy hissiyotlarning koʻproq uchrashini ularning tabiatan kuchsiz va himoyaga muhtoj xarakter xususiyatiga ega ekani bilan izohlash mumkin.

J.Berri ham migrantlarda yuzaga keladigan bu holatni “akkulturatsiya stressi” deb nomlashni taklif qildi<sup>6</sup>.

Bu atama migratsiya jarayonidagi shaxslarda yuzaga keladigan salbiy hissiy holatlarni ochib berishga imkon beradi. Ayollarda “akkulturatsiya stressi”ni kamaytirish maqsadida ular uchun psixologik guruhlarda mashgʻulotlar olib borilsa, ularda oʻziga boʻlgan ishonch hissi hamda migratsiya davrida insonlar bilan suhbatga kirisha olish koʻnikmalarini shakllantirish maqsadga muvofiq boʻlar edi.

**O.M. Espin** “Women Crossing Boundaries” kitobida migrant ayollar migratsiya jarayonida mezbon davlat madaniyatini oʻzlashtirishini oʻrganib, ular mezbon davlat madaniyatini oʻzlashtirib olishga intilishi, bu yaxshi tajriba ekani, ammo butunlay oʻzlashtirishning va avvalgi oʻz madaniyati va qadriyatlaridan butunlay voz kechishning umuman iloji yoʻq, degan xulosaga kelgan<sup>7</sup>.

Shu oʻrinda migrantlar mezbon davlatning madaniy hayotiga qanchalik tez kirishsa (masalan, bayramlarida qatnashish, qadimiy va turistik joylarga borish, odamlari bilan muloqotda boʻlish), moslashish jarayoni tezroq kechar ekan. Ayollar migratsiyasining sababini oʻrgangan holda, eng asosiy omillardan sifatida gender tenglikning

<sup>5</sup> Стефаненко Т.Г. Этнопсихология / Т.Г. Стефаненко. — 3-е изд. — Москва: Аспект Пресс, 2004. — 368 с. 107

<sup>6</sup> [https://assets.cambridge.org/97805217/62120/frontmatter/9780521762120\\_frontmatter.pdf](https://assets.cambridge.org/97805217/62120/frontmatter/9780521762120_frontmatter.pdf)

<sup>7</sup> <https://www.routledge.com/Women-Crossing-Boundaries-A-Psychology-of-Immigration-and-Transformations/Espin/p/book/9780415917001>

yo'qligi, ayollarning an'anaviy rollari, erkaklar va ayollar uchun mehnat bozoridagi notenglik, gender zo'ravonlik, global feminizatsiya jarayonlarini keltirish mumkin.

Qirg'izistonda migratsiyani o'rgangan tadqiqotchi **J.Qodirqulova** ayollar uchun migratsiya jarayonlarining oqibatlarini o'rganishda migrantlar kelib chiqqan mamlakat ijtimoiy-madaniy sharoitini hisobga olish muhimligini ta'kidlaydi<sup>8</sup>.

Hozirgi kunda dolzarb bo'lib turgan muommolardan biri bu gender tenglikdir. Agar ayollar va erkaklar gender tengligiga e'tibor qaratilmasa, bu ayollar mehnat migratsiyasi ko'payishiga olib keladi. Bu holat jahon tajribasiga xos. Shunday bo'lsa-da, migratsiyadagi ayollar topgan daromadini uzluksiz oilasiga yuborishadi. Ular oilasiga, farzandlarining ta'minotiga o'zlarini o'ta ma'sul hisoblashadi.

Hayat Kabasakal, Alev Ergench Katrinli, O'mur Timurkanday O'zmen hamda Ishik Urla Zeytinog'lular tomonidan Turkiyada maoshli uy ishida ishlayotgan migrant ayollarlar nima sababdan migratsiya qilganini va ular duch kelayotgan muommolarni o'rgandi.

Tadqiqotni 1995-yil bahori va 1996-yil bahori oralig'ida Turkiyaning Istanbul va Izmir shaharlarida xususiy uy xo'jaliklari sohasida band bo'lgan 260 nafar uy ishchilari o'rtasida so'rovnoma shaklida o'tkazdilar. So'rov natijalarini chuqurroq muhokama qilish uchun har bir shaharda fokus guruh tuzildi. Tadqiqot natijalari migratsiyadagi ishchi ayollarning holati, ish sharoitlari, ma'lumoti va ruhiy holatini ochib berdi.

Respondentlar, asosan, pulli uy mehnati bilan shug'ullanuvchi, oilaviy mas'uliyatli, yetuk ayollar edi. Respondentlarning to'rtidan uch qismi 30 yoshdan oshgan, 91 foizi esa o'rta ma'lumotli yoki maktabni ham tugallamagan ayollar edi. Tadqiqotdagi ayollarning 85% oilali edi.

Respondentlarning kamida 88 foizi migrantlar bo'lib, mamlakat ichida qishloqlardan shaharlarga ko'chib o'tgan, besh foizi esa Bolqon yoki Yaqin Sharqdan kelgan. Ichki muhojirlar, asosan, mamlakatning qashshoq qismlari, ya'ni markaziy, sharqiy va janubiy Anadoludan kelgan. Biroq respondentlarning to'rtidan bir qismidan ko'prog'i ular shunchaki migrant oila a'zosiga

ergashganliklarini aytishdi. So'rovda qatnashgan ayollarning yarmi bu savolga javob bermaslikni ma'qul ko'rdi. Respondentlarning beshdan biri o'zlari ishlayotgan uy xo'jaliklarida "umumiy" ta'qib va zo'ravonlikka duch kelganliklarini bildirgan.

4 foizga yaqin ayol ishlayotgan uy xo'jaliklarining erkak a'zolari tomonidan jinsiy zo'ravonlikka duchor bo'lganini aytgan. Ular ko'pincha hujum, ta'qib yoki haqorat qilish qo'rquvi bilan ishlashgan va bu haqda gapirishdan qo'rqishgan, chunki ular ish yo'qotishdan qo'rqishgan yoki kelajakda xavf paydo bo'ladi deb hisoblashgan. Tadqiqot natijalari migrant ayollarning huquqi ta'minlanmaganini ko'rsatdi. Tadqiqotda ishtirok etgan migrantlar ayollarning hech biri oliy ma'lumotga ega emas edi. Ma'lumot darajasi qanchalik past bo'lsa, shunchalik qiyin sharoitlarda ishlashga to'g'ri keladi.

Peskova D. R. va Abreu Bastos O. P. migrant ayollarning sog'lig'iga oid tadqiqotlar olib borib, mehnat migratsiyasi ayol salomatligi uchun xavfli deb topdi<sup>9</sup>. Bu, birinchi o'rinda, ularning ruhiy salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishini, shu bilan birga, oilaviy munosabatlar yomonlashib borishini, ayollar migratsiyadan qaytgan taqdirda ham oilaviy hayot munosabatlar yaxshilanishi juda qiyin kechishini takidlab o'tgan. Peskova D.R. e'tibor qaratgan yana bir muhim jihat – onalarisiz o'sgan farzandlarning ruhiy xulq-atvori. Onasisiz o'sgan bolalar bilan katta tushunmovchiliklar kelib chiqishi va oilaviy ajrimlar migratsiyadan qaytgan ayollarning oilalarida ko'proq kuzatilgan. Bu holatlar ayollarda kuchli depressiya va asabiy buzilishlarga olib kelishini tadqiqot jaroyonida ochib bergan.

Farzand kelajagi uchun oilaning o'rni beqiyosdir. Bola shaxsining shakllanishida oilaning to'liqligi, ota-onaning o'zaro va farzandlar bilan bo'ladigan munosabatlari beqiyosdir. Uning uchun ota-ona mukammal siymo hisoblanadi. Agar oilada ota migratsiya jarayonida bo'lsa, ona ota obrazini saqlab qolishga harakat qiladi. Ammo oilada ayol migratsiya jarayonida bo'lsa, bola tasavvurida ideal ona obrazini saqlab qolish yoki

<sup>8</sup> <https://cyberleninka.ru/article/n/osnovnye-vektory-zhenskoy-migratsii-na-evraziyskom-prostranstve/viewer>

<sup>9</sup> Пескова Д. Р., Абреу Бастос О. П. Причины, риски и последствия распространения женской трудовой миграции: исследование на региональном уровне // Фундаментальные исследования. 2014. № 11, ч. 3. – С. 596—600.

shakllantirish juda mushkul vazifa bo'lib qoladi. Hozirda farzandining kichik yoshda bo'lishiga qaramay, enaga qaramog'iga tashlab migratsiya qilayotgan ayollar juda ko'p uchramoqda. Onasiz qolgan bolalar yetarlicha mehr-e'tibor olmasligi bilan bir qatorda, o'zini keraksiz his etishi, ya'ni "men onam uchun kerak emasman" degan xulosaga borishi mumkin. Ko'p hollarda onalar migratsiyadan qaytgach, ma'lum vaqt bolalari bilan murosa qila olmaydi. Bolaning tashqi ta'sirlarga berilib ketish hollari kuzatiladi. Yo'qotilgan vaqt, berilmagan tarbiya tuzatib bo'lmaz holatga olib kelishi mumkin. Shu sababli migratsiyaga ketishdan oldin, albatta, oila va farzandlar taqdiri haqida yaxshilab o'ylab ko'rish kerak.

Migratsiya jarayonida ayollarning hal qilinmagan muammolari juda ko'p bo'lib, bu muammolardan biri farzandi bilan migratsiya qilish yoki migratsiya jarayonida farzandni dunyoga keltirishdir.

2013-yilda Markaziy Osiyolik migrant ayollarning muammolari yuzasidan Bateneva E.V. tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda ta'kidlanishicha, ushbu mintaqa ayollari eng ko'p uchraydigan muammo – farzandlari bilan ishlash, ish topish, bola bilan uy-joy qilish<sup>10</sup>.

Bu kabi ayollarning ko'pchiligi noqonuniy migrant bo'lgani bois, o'zlarining ham, bolalarning ham huquqiy va tibbiy himoya masalasi ta'minlanmagan. Natijada ko'plab farzandlar bolalar uylarida yoki tug'ruqxonalarda qoldirilishi ayollar migratsiyasining hal etilmagan muammolari ekanini ko'rsatib beradi.

Aslida ayollar boshqa mamlakatlarga umuman boshqa orzular ijobati ilinjida borishadi. Lekin natija qanday bo'lishidan qat'iy nazar, farzanddan voz kechish darajasida tubanlashishga borishni hech qanday sabab orqali oqlashning iloji yo'q. Bizning o'zbekona tarbiyamiz asrlar oshib, bobo-buvilarimiz orqali bizga yetib kelmoqda. O'zbekona tarbiyamiz qadriyatlar va dinimiz bilan uyg'unlashib ketgan. Farzand oliy ne'mat hisoblanadi. Bola tarbiyasiga a'lohida e'tibor qaratiladi. Hozirgi kunda oilalarga "zamonaviy oila", "yevropalashgan oila" kabi

tushunchalarning kirib kelishi natijasida o'zimizning o'zbekona tarbiya usullarimiz unutilmoqda, bu esa, o'z navbatida, kelajagimiz uchun juda salbiy holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu fikrlar bilan "ayollar migratsiyasi noto'g'ri", degan xulosani emas, balki "ayol kishi migratsiya qilishdan avval migratsiya jarayoni haqida kerakli bilimlarga ega bo'lishi lozim", degan fikrni yodga solmoqchimiz xolos. Masalan, migrant borayotgan yurtining tilini bilishi, qonun-qoidalari hamda urf-odatlaridan biroz bo'lsa-da, xabardor bo'lishi lozim. Yetarlicha bilimga ega bo'lish orqali o'zga mamlakat hududida o'z huquqlarini himoya qilish bilan birga, qonunni ham buzmagun bo'ladi.

E.Y.Blinova o'z tadqiqotida Yevropada ishlayotgan 87 nafar ukrainalik migrantning Ukrainada olgan mutaxassisligi va malakasining mehmon davlat standartlariga moslik darajasini aniqlashga harakat qilgan<sup>11</sup>. Ushbu tadqiqotda ishtirok etgan 87 nafar migrantning 45 nafari – erkak (51,7 foiz), 42 nafari – ayol (48,3 foiz) bo'lib, ular bilan suhbat o'tkazilgan. So'rovda qatnashgan mehnat muhojirlarining salmoqli qismi (74,7%) Ukrainada egallagan mutaxassisligi bo'yicha ishga joylasha olishmagani, ish topishning deyarli imkoni yo'q ekanini ta'kidlashgan. Ularning 13,8 foizi "bu juda qiyin" degan fikrni qo'llab-quvvatlagan, 11,5 foizi esa bunday imkoniyat mavjud ekanini bildirgan. Ukrainadan Yevropaga borgan har 10 migrantdan bittasi o'z mutaxassisligi bo'yicha ish topishga muvaffaq bo'lgan.

"Chet elda ishlash sizni qoniqtiradimi?" degan savolga so'rovnoma ishtirokchilarining 65,5 foizi "Ha, qanoatlantiradi" deb javob bergan, chunki oilasining ta'minoti shu ish bilan bog'liq ekani sabab sifatida ko'rsatilgan. Migrantlar kuniga 14-16 soat ishlashsa-da, 57,5 foizi yashash uchun qulayliklar yetarli, degan javobni bergan. Moliyaviy imkoniyatlar yaxshilanishi muhojirlar uchun motivatsiya bo'lishi tadqiqotda o'z isbotini topdi.

Ko'plab migrant ayollarning migratsiya jarayonida o'z mutaxassisligi bo'yicha ishlamasligiga sabab ularning o'rta ma'lumotga ega bo'lishidir. Oliy ma'lumotli migrant ayollar ham, asosan, eng oddiy ishlarni qilishga majbur. Sababi migratsiya yaxshi yo'lga qo'yilmagani yoki yaxshi ish topishning iloji yo'q, degan tushunchaning shakllanib ulgurganida.

<sup>10</sup> Батенева Е.В. Женская миграция из стран Центральной Азии: проблемы особенности [Women's migration from countries of the Central Asia: problems and particularities]. Вестник Московского государственного университета культуры и искусств. 2013, – № 1. – С. 90-94

<sup>11</sup> Социально-психологическая адаптация трудовых мигрантов из Украины: опыт эмпирического исследования // <https://www.hse.ru/mirror/pubs/share/185644029>

V.V.Gritsenko, M.N.Yefremenkova va N.V.Murashchenkovalar Markaziy Osiyo davlatlaridan kelgan mehnat muhojirlarining oilaviy ahvoli va munosabatlarining rolini o'rganuvchi ilmiy tadqiqotlarning deyarli mavjud emasligi, oilaviy qo'llab-quvvatlash, oilaviy munosabatlardagi mehr-muhabbat yetarli bo'lgan migrantlar bilan oilaviy munosabatlari muammoli migrantlarning moslashish jarayoni turli xil bo'lishi haqida so'z yuritganlar. Oilaviy qo'llab-quvvatlash migrantlarda psixologik stressning kamayishiga hamda jamiyatga moslashishning tezlashishiga yordam bergan. Ayollar tabiatan hissiyotga beriluvchan jins vakili hisoblanadi va bu, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, migratsiya jarayonida psixologik stressni keltirib chiqaradi. Agar migratsiyadagi ayol oilaviy kelishmovchilik oqibatida ruhiy bosimda qolgan bo'lsa, turli xil psixologik kasalliklarga chalinish ehtimoli yuqori bo'ladi. Ruhiy xotirjamlikka ega bo'lmagan insonning hayotiy qiyinchiliklarni yengishi qiyinlashib boradi.

**Xulosa** qilib aytganda, migratsiya bugungi kunda dolzarb mavzulardan biri sanaladi. Ayollar migratsiyasi esa e'tibor qaratish zarur bo'lgan jarayondir, chunki ayolning eng buyuk vazifasi bu

farzand tarbiyalash, onalik mehrini berish, bekalik qilish hisoblanadi. Jamiyatni, kelajagi bo'lmish yosh avlodni tarbiyalovchi shaxs, albatta, onalar, ayollardir. Ayollar orasidagi migratsiya sonining oshishi esa yaqinlari qarmog'ida qoldirilgan bolalarning ruhiy holatiga ta'sir o'tkazmay qo'ymaydi, albatta. Tarbiyada biroz e'tiborsizlik yoki loqaydlik kelajakda shaxs shakllanishida salbiy xarakter xususiyatlarini hosil qilishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, migratsiyadagi ayollarning asosiy qismini ma'lumot darajasi past bo'lib, ishlash uchun borgan davlatida ham eng oddiy ishlarni qilishga majbur bo'lishadi. Bu esa ayollarda turli ruhiy va somatik kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Migratsiyaning oldini olish emas, balki migratsiyaning to'g'ri yo'nalishini tashkil etish orqali ayollarga yordam berish eng to'g'ri yo'l hisoblanadi.

**Taklif va tavsiyalar.** Birinchi navbatda ayollarga huquqiy hamda psixologik bilimlar berish orqali fikrlashini va dunyoqarashini yoshlikdan shakllantirib borish lozim. Ta'lim olish hamda kasbiy yuksalish faoliyati bilan bog'liq migratsiyani kengaytirish va shu soha uchun imkoniyatlar berish lozim.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://worldmigrationreport.iom.int/world-migration-report-2022-selected-infographics>
2. International Migration Report, 2020.
3. О.П.Кошулько, канд. экон. наук, доцент. Миграция женщин как одно из современных направлений социальных исследований. – С.121-123.
4. <https://makemothersmatter.org/migrant-womens-mental-health-wellbeing/>
5. Стефаненко Т.Г. Этнопсихология. – 3-е изд. – Москва: Аспект Пресс, 2004. – 368 с.
6. [https://assets.cambridge.org/9780521762120/frontmatter/9780521762120\\_frontmatter.pdf](https://assets.cambridge.org/9780521762120/frontmatter/9780521762120_frontmatter.pdf)
7. <https://www.routledge.com/Women-Crossing-Boundaries-A-Psychology-of-Immigration-and-Transformations/Espin/p/book/9780415917001>
8. <https://cyberleninka.ru/article/n/osnovnye-vektory-zhenskoy-migratsii-na-evraziyskom-prostranstve/viewer>
9. [Hayat Kabasakal , Alev Ergench Katrinli , Ömür Timurcanday Özmen , Ishik Urla Zeytinoğlu] “Turkiyadagi uy ishida ishlayotgan muhojir ayollar”, *Yaqin Sharq hisoboti* 211 (1999 yil yozi).